

**O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA QAHRAMON
TUSHUNCHASI VA ULARNING TAQDIRI**

Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

munavvar@samdchti.uz

***Annotatsiya:** maqolada XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti va nasri rivojida O'tkir Hoshimov asarlarining tutgan o'rni, asar qahramonlarining hayot tarzi va kechinmalari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** adib, millatparvar, kitobxon, obraz, tinchlik, tasvir.*

**КОНЦЕПЦИЯ ГЕРОЕВ И ИХ СУДЬБА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
ОТКИРА ГАШИМОВА**

Файзуллаева Мунаввар Баходировна

Самаркандский государственный институт иностранных языков

munavvar@samdchti.uz

***Аннотация:** в статье рассматривается роль произведений Откира Гашимова в развитии узбекской литературы и прозы второй половины XX века, образ жизни и переживания героев произведения.*

***Ключевые слова:** писатель, патриот, читатель, образ, мир, образ.*

**THE CONCEPT OF THE HERO AND THEIR FATE IN THE
WORKS OF OTKIR HASHIMOV**

Faizullayeva Munavvar Bahodirovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

munavvar@samdchti.uz

***Abstract:** the article discusses the role of O'tkir Hashimov's works in the development of Uzbek literature and prose of the second half of the 20th century, the lifestyle and experiences of the heroes of the work.*

***Key words:** writer, patriot, reader, image, peace, image.*

KIRISH

XX asr o'zbek adabiyoti, nasrida o'chmas iz qoldirgan adiblarimizdan biri bu O'tkir Hoshimovdir. Adib o'z asarlarining dilga yaqinligi, o'quvchining xayolida o'chmas iz qoldirishi bilan ajralib turadi. O'tkir Hoshimov turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan. Shuningdek, u O'zbekiston respublikasi yozuvchilar qo'mitasi raisi vazifasini bajargan. Umri davomida nasr yo'nalishida barakali ijod qilgan adibning asarlarini o'qigan kitobxon urush davrlaridagi xalq dardi, kechinmalarini qiyinchiliklarsiz his etadi, tushunadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adib o'z asarlarida turli xil obrazlarning hayotini yoritib berish yo'lida butun bir o'zbek xalqining kechinmalarini yoritib beradi. Bunga misol qilib juda ko'p kutubxonlarning dilida o'chmas iz qoldirgan asari "Ikki eshik orasi" va "Urushning so'nggi qurboni" asarlarini olishimiz mumkin.

"Ikki eshik orasi" asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlanadi. Bu nom agar sinchiklab tahlil qilinsa butun bir asar haqida bizga ma'lumot bera oladi. Adib birinchi navbatda tinchlikka rahna solgan urushni tasvirlaydi ya'ni asarning bosh qahramonlaridan biri bo'lgan "qora amma"ning urush tufayli uch pahlavon o'g'illaridan ayrilgani kamlik qilgandek, "Kimsan"ni ham qo'ldan boy berishi va xuddi o'z qizidek bo'lib qolgan Robiyaning kundan kunga so'lib borayotganini ko'rib ezilayotgani bir tasvirdir. Boshqa tomondan jon jigari bo'lgan ukasining xotini xiyonat qilib boshqa bilan qochib ketadi va bu nafaqat ukasining sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, balki hali murg'ak bo'lgan ukasining jondan aziz o'g'li Muzaffarjonga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Bu tasvir asarning faqat ma'lum bir qismi bo'lib voqealar davomida SSSR davri mustamlaka davrida ilm olishga bo'lgan qarshiliklar, xalqni ma'naviyatini boyitishga harakat qilgan xalqparvarlarni qanchalik ayanchli

tarzda yo‘q qilishgani tasvirlanadi. Asarda millatparvarlardan bo‘lgan obraz “oqsoqol” ham ajralib turadi, u oqsoqollik qilgan davrda Robiyalarning oilasiga ko‘p yordam beradi. Ularni o‘z qishlog‘iga olib kelgandan keyin Husan dumaning uyiga keyinchalik alohida uy qurib berish sharti bilan joylashtiradi, Robiyaning dadasini maktabga muallim sifatida ishga kiritadi. Oqsoqol “Samadov” bilan hashar yordamida bolalar uchun maktab qurishadi, bu bolalarga bilim olish uchun yordam bo‘ladi, ammo “Samadov”ning olib ketilishi, “oqsoqol”ning o‘z vazifasidan ozod qilinishigan asosiy sabab bo‘lib qoladi. Shundan ham ko‘rishimiz mumkinki o‘sha davrlarda millatning bilimli bo‘lishiga va unga hissa qo‘shgan odamlarga katta qarshilik avj olgan.

“Urushning so‘nggi qurboni” bu hikoyada ham bosh mavzu sifatida urush va uning yomon oqibatlari qalamga olingan. Asarda Umri Xola va uning oilasining urush davridagi hayoti tasvirlanadi. Umri Xolaning ikki o‘g‘li bo‘lib kattasi Shoikrom to‘qimachilik kombinatida mantyor bo‘lib ishlardi. Uni kombinatda ishchi kuchi yetishmasligi tufayli urushga jo‘natishmadi, uning ukasi Shone‘matni esa sil kasalligiga chalingani tufayli olishmadi. Hikoyada yagona salbiy obrazni ko‘rishimiz mumkin u ham bo‘lsa Xadicha Shoikromning xotini. U Shoikromning tilidan “azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi” deya ta‘riflanadi. Zamon o‘zgargan hayot saqlash birmuncha qiyinlashgan, uning ustiga Shoikromning uch qizi, xotini, uka va oyisini ta‘minlashi kerak. Bu o‘ylar Shoikromni ancha toliqtirib qo‘yadi va o‘zidan o‘zi nafratlanishiga ham bir muncha ta‘sir qiladi. Shuncha tashvishlar yetmagandek uning tungi smenasida yaqinda tug‘adigan bo‘lib turgan sigirni o‘g‘irlab ketishadi. Bu esa bir tomondan “urushning so‘nggi qurboni” bo‘lgan Umri xolaning qulupnay o‘g‘irlashiga sabab

bo'ldi nega deganda u qulupnaylarni sutga almashib og'ir darddan qiynalayotgan Shone'matga kuch bo'lishi uchun qilayotgan edi. Umri xola qulupnaylarni ochiqchasiga olsa ham bo'lar ediku degan savol har bir kitobxonda tug'ilishi mumkin bunga javoban yana o'sha zamon. Umri xola ularni so'rab ham olaolmas edi, chunki bir safar shu ishi tufayli kelini bilan anchagacha yuz ko'rmas bo'lib yurgan. Ona bechora nima qilsa ham o'z jigarbandini o'yladi va tunda qulupnay pushtalari orasida o'z o'g'li qo'ygan "qopqon" ga tushdi, ya'ni tok urib jon berdi. "Oxirgi pushaymon o'zingga dushman" deganlaridek Shoikrom ham o'z xayollari bo'yicha bir "haromxo'r"ni tutmoqchi edi, ammo o'z qilgan ishidan oxirida o'zi pushaymon yeganlardan biri bo'ldi.

Biz bu asarlar va hikoyalarni barcha kitobxonga tavsiya qilamiz va qilib kelmoqdamiz. Bu asarlarni o'qish kitobxonga qisqa muddatda qanday mushkulotdan yorib shunday ilmga e'tibor beriladigan zamonga yetishganimizni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" asari 2021.
2. O'tkir Hoshimov "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi.
3. M.B. Fayzullayeva "[O'tkir Hoshimov asarlarida "ona" va "ayol" obrazlari talqini](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation_for_view=9NS0PMkAAAAJ:5nxA0vEk-isC)"

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation_for_view=9NS0PMkAAAAJ:5nxA0vEk-isC

4. Tafakkur.net internet sayti.